


TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 - mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

| | |
|--|---------------------------|
| Ro'yxatdan o'tgan korxonalar | 111 908 108,0 % |
| Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar | 107 365 108,7 % |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda) | 2 578 81,0 % |

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - fevral oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,7** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




8,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




10,9 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




8,1 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **9,4** foizga oshdi



Xususiy korxonalar










O'tgan yilga nisbatan **9,9** foizga kamaydi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korruxona va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - mart holatiga ko'ra 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 2,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 3,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022 - yilning yanvar - fevral oyilarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 87 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 7,5 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni
(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - mart holatiga ko'ra 8,2 mingtani tashkil etib, ulardan 8,0 mingtasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 12,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - fevral oylarida

202 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)


12

| | Jami | <i>shundan:</i> | |
|---------------------------|--------------|---------------------------|---------------------------|
| | | <i>qo'shma korxonalar</i> | <i>xorijiy korxonalar</i> |
| Rossiya Federatsiyasi | 1 423 | 585 | 838 |
| Qozog'iston Respublikasi | 768 | 287 | 481 |
| Ozarbayjon Respublikasi | 174 | 57 | 117 |
| Ukraina Respublikasi | 126 | 60 | 66 |
| Qirg'iz Respublikasi | 134 | 48 | 86 |
| Tojikiston Respublikasi | 95 | 33 | 62 |
| Turkmaniston Respublikasi | 62 | 21 | 41 |
| Belarus Respublikasi | 64 | 30 | 34 |
| Armaniston Respublikasi | 31 | 14 | 17 |
| Moldova Respublikasi | 15 | 6 | 9 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – mart holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,3 %, Qozog'iston Respublikasi 10,1 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri kelmoqda.


Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)

| | Jami | shundan: | |
|------------------------|--------------|-------------------|-------------------|
| | | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| Toshkent shahri | 8 039 | 3054 | 4 985 |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 266 | 86 | 180 |
| Bektemir | 188 | 96 | 92 |
| Yunusobod | 953 | 381 | 572 |
| Mirzo Ulug'bek | 1 049 | 406 | 643 |
| Mirobod | 1 378 | 416 | 962 |
| Shayxontohur | 551 | 245 | 306 |
| Olmazor | 432 | 210 | 222 |
| Sirg'ali | 276 | 123 | 153 |
| Yakkasaroy | 1 325 | 438 | 887 |
| Yashnobod | 643 | 286 | 357 |
| Yangihayot | 112 | 55 | 57 |
| Chilonzor | 866 | 312 | 554 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 378 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 325 ta (16,3 %), Mirzo Ulug'bek – 1 049 ta (13,1 % hamda Yunusobod tumanlarida 953 tani (11,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 266 ta (3,3 %), Bektemir 188 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 112 tani (1,4 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra, birlikda)





2022 - yil 1 - mart holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (12,6 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (8,1 %), Sirg'ali – (5,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,1 %), Yunusobod – (11,7 %), Mirzo Ulug'bek – (11,2 %), Olmazor – (9,7 %), Yashnobod – (9,2 %), Shayxontohur – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,2 %), Uchtepa – (8,3 %), Mirobod – (8,1 %), Sirg'ali – (6,4 %), Bektemir – (3,1 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,2 %) tashkil etgan.







2022 - yilning yanvar - fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (17,1 %), Yashnobod – (13,4 %), Yunusobod – (11,0 %), Uchtepa – (11,0 %), Olmazor – (8,5 %), Yangiheyot – (8,5 %), Sirg'ali – (7,3 %), Mirzo Ulug'bek – (6,1 %), Yakkasaroy – (6,1 %), Chilonzor – (3,7 %), Mirobod – (2,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (4,9 %) ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika org10anlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJIMATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area features a dropdown menu with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a registration form with fields for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from photo), along with a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' categories like 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31